

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MAMADJANOVA DILOROMXON BAXTIYOR QIZI

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI PEDAGOGIK
FAOLIYATGA TAYYORLASHDA ALIXONTO'RA SOG'UNIYNING
ILMIY-IJODIY MEROSIDAN FOYDALANISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of
philosophy (PhD) on pedagogical sciences**

Mamadjanova Diloromxon Baxtiyor qizi

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda Alixonto‘ra Sog‘uniyning ilmiy-ijodiy merosidan foydalanish..... 3

Мамаджанова Дилоромхон Бахтиёр кизи

Подготовка будущих учителей начальных классов к педагогической деятельности с использованием научно-творческого наследия Алихантура Согуний..... 25

Mamadjanova Diloromxon Baxtiyor qizi

Preparing future primary school teachers for pedagogical activities using the scientific and creative heritage of Alikhantora Soguni..... 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 51

MAMADJANOVA DILOROMXON BAXTIYOR QIZI

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARINI PEDAGOGIK
FAOLIYATGA TAYYORLASHDA ALIXONTO‘RA SOG‘UNIYNING
ILMIY-IJODIY MEROSIDAN FOYDALANISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4PhD/Ped4004 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.bimm.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Isyanov Ravil Gennadiyevich
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Saliyeva Zuhra Tahirovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Jurayev Dustmurod Urolovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "16" 05 kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 202-01-20; faks: (+99871) 202-01-21; e-mail: info@bimm.uz)

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (20 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 203-01-28.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "25" 09 kuni tarqatildi.

(2025-yil "25" April dagi 20 - raqamli reyestr bayonnomasi).



U.Sh.Begimkulov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

N.K.Haqnazarova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)

Ya.U.Ismadiyarov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorlash (literacy and life skills), savodxonlik, hayotiy va muloqot ko'nikmalarini (communication skills) rivojlantirish, tanqidiy fikrlash (critical thinking) kabi yondashuvlarni integratsiya qilish orqali ta'lim jarayonining innovatsion modelini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda pedagog modeli asosida integratsiyalangan STEAM yondashuvi, muammoli o'qitish metodologiyasi (Problem-Based Learning), innovatsion pedagogik texnologiyalar va ijtimoiy-emotsional ta'lim (Social-Emotional Learning), 4K modeli singari zamonaviy yondashuvlar orqali interaktiv va talabalar faolligiga yo'naltirilgan o'qitish tizimlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Dunyoning rivojlangan davlatlari tarixiy ilmiy-pedagogik qadriyatlarning genezesi, fan, madaniyat va ishlab chiqarish sohalarida taraqqiyotga ta'siri chuqur o'rganilib, zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish asosida ta'limni axborotlashtirish sharoitida insonparvarlik, mehnatsevarlik va vatanparvarlik g'oyalarini rivojlantirish bo'yicha amaliy loyihalar ishlab chiqilmoqda va amaliyotga tatbiq etilmoqda. Shuningdek, pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalari ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Xususan, ta'limning barqaror rivojlanishi, raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish va madaniyatlararo muloqotning ahamiyati ortib, o'qituvchilarning zamonaviy kompetensiyalarini shakllantirish, umumbashariy qadriyatlarni o'quv jarayoniga singdirish bo'yicha amaliy loyihalarni tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyoda bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda smart ta'limi, masofaviy ta'lim, elektron ta'lim (e-learning), mobil ta'lim (m-learning orqali ularida integrativ va kreativ yondashuvlar asosida ilmiy-ijodiy qadriyatlardan foydalanish samaradorligini oshirish, hamkorlik, kommunikativlik, kritik hamda milliy ta'lim-tarbiya tizimini zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yosh avlodni yuksak bilim, ma'rifat egalari, jismoniy va ma'naviy sog'lom insonlar etib tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) pedagogik texnologiyalari orqali shaxsiy-kasbiy tayyorlash, kasbiy rivojlanishida innovatsion va interaktiv dasturiy vositalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning didaktik ta'minotini intensiv ta'lim texnologiyalarini integrallashgan mashg'ulotlar tizimiga tatbiq etishning adaptiv mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizning pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlash jarayoni va mexanizmlarini takomillashtirish, o'sib kelayotgan yosh avlod ongiga ajdodlarimiz, ota-bobolarimizning boy ma'naviy merosini singdirish, bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda mutafakkirlar ijodini o'rganishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Global xavf-xatarlar kuchayib borayotgan hamda milliy o'zlikni anglash va haqiqiy tariximizni tiklash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etayotgan bugungi davrda mustabid tuzum tomonidan shafqatsiz qatag'on

qilingan davlat va jamoat arboblari, ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot namoyandalarining, oddiy kasb egasi bo'lgan minglab yurtdoshlarimizning nomlari va xotiralarini abadiylashtirish, ularning jasorati va matonati misolida yosh avlodimizni Vatanimiz va xalqimizga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash"¹ ustuvor vazifalar etib belgilandi. Natijada, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari kengaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2020 yil 8-oktyabrdagi F-5598-son "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi farmoni, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda sharq mutafakkirlarining pedagogik merosini O.M.Musurmonova, A.Boxonov, R.S.Mavlonova, M.M.Ochilov, R.G.Safarova, B.R.Adizov, F.R.Yuzlikayev bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyalash, uning pedagogik faoliyatini samarali tashkil etish, o'qituvchi odobi, kasbiy-ijodiy sifatlarini shakllantirishga oid B.S.Abdullayeva, R.G.Isyanov, B.M.Rasulov, N.A.Muslimov, O.A.Qo'ysinov, M.Y.Mahkamova, X.I.Ibragimov, R.B.Yarmatov, B.X.Raximov, U.I.Mahkamovlar tomonidan olib borgan.

MDH mamlakatlari olimlari L.G.Axmetov, M.S.Artyuxina, V.P.Bespalko, O.N.Vershinskaya, I.A.Zimnyaya, E.Yu.Ilatdinova, P.I.Pidkasistiylar ishida oliy ta'lim muassasalari talabalarining pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish jihatlari tadqiq etilgan.

Xorijda Alixonto'ra Sog'uniyning hayoti va ijodini yoritish P.H.Yilmaz, E.Bozkurt, F.Shakirova, D.Brohpylar asarlarida; bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatga tayyorgarlik metodlarini takomillashtirish masalalari M.B.Khathleen, L.W.Christine, D.Nunan, J.H.Pestalozzi, R.M.Ingersoll, N.R.Henke,

¹ Sh.M.Mirziyoyev-<https://daryo.uz/2023/03/06/shavkat-mirziyoyev-jadidlar-merosini-organishga-bagishlangan-xalqaro-konferensiya>

M.C.Cormack, D.Raufelder, A.Villar, D.M.Sadker, K.R.Zittleman kabi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Pedagogik yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha ilg'or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan (2021-2024 yy.).

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda Alixonto'ra Sog'uniyning ilmiy-ijodiy merosidan foydalanishning samarali pedagogik usullarini aniqlash va didaktik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Alixonto'ra Sog'uniyning ilmiy-ijodiy merosidan foydalanishni ilmiy-nazariy asoslash hamda bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashni nazariy tahlil qilish;

Alixonto'ra Sog'uniyning ilmiy-ijodiy merosidan foydalanishning zamonaviy didaktik texnologiyalarga asoslangan ilmiy modelini ishlab chiqish;

raqamli transformatsiya sharoitida talabalarga Alixonto'ra Sog'uniyning ilmiy-ijodiy merosini o'rgatish amaliyotini joriy etish;

Alixonto'ra Sog'uniyning ilmiy-ijodiy merosidan foydalanishni ilmiy jihatdan asoslash, mazkur jarayonning samaradorligini oshirish va ilmiy asoslangan tavsiyalar orqali amaliyotga joriy etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda Alixonto'ra Sog'uniyning ilmiy-ijodiy merosidan foydalanish jarayoni bo'lib, Andijon davlat pedagogika instituti, Navoiy davlat pedagogika instituti, Toshkent davlat pedagogika universitetining jami 472 nafar talabalari ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda Alixonto'ra Sog'uniyning ilmiy-ijodiy merosidan foydalanish mazmuni, metod, shakl va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida muammoga oid ilmiy manbalar, malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlari, darslik va o'quv-metodik adabiyotlarni hamda tajribalarni qiyosiy o'rganish, tahlil qilish, kuzatish, suhbat, anketa-so'rovnoma, pedagogik tajriba-sinov, natijalarni matematik statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Alixonto'ra Sog'uniyning ilmiy-ijodiy merosidan foydalanishda uning "Turkiston qayg'usi", "Devoni Sog'uniy" asaralaridagi insonparvarlik, vatanparvarlik va ilm olishga yo'naltiruvchi g'oyalari mazmunan pedagogik ta'lim kontekstida tahlil qilinib, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash maqsadlariga moslashtirilgan, nazariy-metodik yondashuvlar asosida didaktik salohiyati aniqlashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning didaktik modeli o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish

imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan Alixonto'ra Sog'uniyning insonparvarlik g'oyalarning ustuvor mazmunini yoritib berishga qaratilgan rivojlantiruvchi topshiriqlarni bosqichma-bosqich kiritish asosida takomillashtirilgan;

raqamli ta'lim resurslari va mobil ta'lim texnologiyasidan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari Alixonto'ra Sog'uniyning ilmiy-ijodiy merosini o'rgatish orqali bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida vatanparvarlik, insonparvarlik hissiyotlarini singdirish hamda shaxsiy fazilatlarini na'muna sifatida ko'rsatish tamoyillariga ustuvorlik berish asosida joriy etilgan;

Alixonto'ra Sog'uniyning pedagogik qarashlar tizimidagi aksiologik jihatlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash bosqichida tarbiyaviy mazmunni shakllantirish imkonini yaratuvchi metodik ta'minotni yaratish orqali amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Alixonto'ra Sog'uniyning ilmiy-ijodiy merosini o'rganish orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan trening mashg'ulotlar majmui ishlab chiqilgan;

Alixonto'ra Sog'uniyning ilmiy-ijodiy merosini o'rganish orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan modeli kasbiy faoliyat komponentlariga ijodiylik, refleksivlik, mahorat kabi kasbiy sifatlarni kiritish hamda tizimlilik kabi tamoyillarni singdirish orqali boyitilgan;

Alixonto'ra Sog'uniyning ilmiy-ijodiy merosini o'rganish orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tarbiya jarayonini takomillashtirish jarayonlarining didaktik ta'minoti sifatida "Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani" nomli o'quv qo'llanma chop etilgan;

Alixonto'ra Sog'uniyning ilmiy-ijodiy merosini o'rganish orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga "Sog'uniy saboqlari" nomli mobil ilova yaratilib, uning samaradorligi ilmiy-metodik jihatdan asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, OAK tavsiya etgan hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan o'quv qo'llanma, uslubiy vositalar, to'plangan materiallarning dissertatsiya mazmunini yoritishga imkon beradigan hajmda ekani, tadqiqotda ilgari surilgan nazariy g'oyalarning soha amaliyotining mohiyatini ifodalashga xizmat qilishi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Alixonto'ra Sog'uniyning ilmiy-ijodiy merosini o'rganish orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirish omillari va mezonlarining aniqlashtirilganligi, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda Alixonto'ra Sog'uniyning ilmiy-ijodiy merosidan foydalanish jarayonlari modeli va integrativ texnologiyasini takomillashtirishning mazmun-mohiyati ochib berilganligi, ilmiy-metodik asosi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati nazariy xulosalar, tavsiyalardan fanlarni o'qitish jarayonini takomillashtirishga, o'qituvchilik faoliyatiga tayyorlanayotgan bakalavrlarning kasbiy mahoratini oshirishga, ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishga, talabalar bilim darajalarini rivojlantirish, qayta

tayyorlash, malaka oshirish kurslarida hamda ta'lim-tarbiya tashkilotlari xodim va uslubchilarining kasbiy tayyorgarligini oshirishga doir amaliy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda Alixonto'ra Sog'uniyning ilmiy-ijodiy merosidan foydalanish jarayonini takomillashtirishga doir olingan natijalar asosida:

Alixonto'ra Sog'uniyning ilmiy-ijodiy merosidan foydalanishda uning "Turkiston qayg'usi", "Devoni Sog'uniy" asaralaridagi insonparvarlik, vatanparvarlik va ilm olishga yo'naltiruvchi g'oyalari mazmunan pedagogik ta'lim kontekstida tahlil qilinib, aniqlashtirishga oid takliflari "Boshlang'ich ta'limda tarbiya" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Kengashining 2023-yil 27-iyundagi 11/3.3-sonli qaroriga asosan berilgan 2023/196 U-49 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash maqsadlariga moslashtirilgan, nazariy-metodik yondashuvlar asosida didaktik salohiyati aniqlashtirilgan;

Alixonto'ra Sog'uniyning ilmiy-ijodiy merosidan foydalanish orqali bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash milliy sharoitga mos va xalqaro standartlarga javob beradigan didaktik modeli ishlab chiqilib, kasbiy faoliyat motivatsiyasini oshirishga yo'naltirilgan motivlar hamda rag'batlantiruvchi, imperativ, eksteriorizatsiya va ijtimoiy-pedagogik, aksiologik, interiorizatsiya tamoyillariga asoslangan pedagogik mexanizmlar bilan boyitishga oid xulosalari "Boshlang'ich ta'limda tarbiya" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Kengashining 2023-yil 27-iyundagi 11/3.3-sonli qaroriga asosan berilgan 2023/196 U-49 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada bo'lajak o'qituvchilarda hamkorlikda ishlash (kollaborativ), kommunikativlik, kreativ va kritik fikrlash ko'nikmalari rivojlantirilgan.

Alixonto'ra Sog'uniyning ilmiy-ijodiy merosidan foydalanish texnologiyasi ta'limni individuallashtirish va mustaqil bilim olish motivatsiyasini rivojlantirishda kasbiy kompetensiyalarni innovatsion, nazariy taxlil etish, analitik va adekvat rivojlantirishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid takliflari "Boshlang'ich ta'limda tarbiya" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Kengashining 2023-yil 27-iyundagi 11/3.3-sonli qaroriga asosan berilgan 2023/196 U-49 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada bo'lajak o'qituvchilariga insonparvarlik g'oyalarini tarixiy-ilmiy va ijodiy negizini individual va mustaqil bilim olish motivatsiyasini o'rgatish samaradorligi ortgan.

Alixonto'ra Sog'uniy ijodidagi aksiologik fazilatlarini singdirish hamda zamonaviy talqin va ilg'or yondashuvlar asosida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda kasbiy bilimlarni intensiv shakllantiruvchi kognitiv-diagnostik yondashuvlar asosida takomillashtirish, ilmiy-metodik asoslangan baholash indikatorlari va pedagogik-analitik usullar samaradorligini oshirish bilan boyitishga oid xulosalari "Boshlang'ich ta'limda tarbiya" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Kengashining 2023-yil 27-iyundagi 11/3.3-sonli qaroriga asosan berilgan 2023/196 U-49 raqamli nashr ruxsatnomasi).

Natijada Alixonto'ra Sog'uniy shaxsga yo'naltirilgan, insonparvarlik g'oyalarini bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyati samaradorligi ortgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy-uslubiy ishlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 129 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan hamda ilmiy-amaliy ahamiyati, natijalarning ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi masalalari o'z aksini topgan.

Dissertatsiyaning **“Alixonto'ra Sog'uniy ilmiy-ijodiy merosini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Alixonto'ra Sog'uniyning ilmiy-ijodiy merosini o'rganishning nazariy asoslari, bo'lajak o'qituvchilarni individual-shaxsiy sifatlarini oshirish va barkamol avlod tarbiyalashning ijtimoiy zaruriyati bayon qilingan. Alixonto'ra Sog'uniyning hayoti va faoliyati, asarlarining mazmun-mohiyati va tahlili, ularning pedagogik ahamiyati mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

Ma'lumki, bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda buyuk ajdodlarimizning merosiga tayanish bugungi kunda olib borilayotgan ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida o'quvchilarga nafaqat ta'lim berish balki ayni vaqtda ularni munosib tarbiyalash, barkamol etib voyaga yetkazish zaruriyatini yuklaydi.

Alixonto'ra Sog'uniy va uning ilmiy-ijodiy merosini tadqiq qilgan xorijiy olimlardan Polat Yilmaz Hüseyin Ozarbayjonning Baku shahrida 2000-yilda “Ali Xan Töre ve Onun Şerqi Türküstan Azadlığı Uğrunda Mübarizesi” (Alixon To'ra va uning Sharqiy Turkiston ozodligi uchun kurashi) nomli doktorlik dissertatsiyasida Alixonto'ra Sog'uniy hayoti va XX asr Sharqiy Turkiston ozodligi uchun olib borgan harakati yoritilgan.

Turkiyaning Istanbul shahrida 2017-yilda Feruzaxonim Shokirova tomonidan “Türkistan aydinlarından Alihan Töre (1885-1976): Hayati, faaliyetleri ve fikirleri” (Turkiston ziyolilaridan Alixon To'ra (1885-1976): Uning hayoti, faoliyati va g'oyalari) nomli tadqiqot ishida asosan Alixonto'ra Sog'uniyning hayoti, siyosiy va ijtimoiy faoliyati “Turkiston qayg'usi” asaridagi ozodlik g'oyalari yoritilgan.

Harvard universiteti tadqiqotchisi David Brophyning “Uyghur Nation Reform and Revolution on the Russia-China Frontier” (Uyg'ur millati. Rossiya-Xitoy chegarasida islohot va inqilob) nomli kitobida Alixonto'ra Sog'uniy haqida ma'lumotlar keltirilgan.

2009 yilda turk tadqiqotchisi Elife Bozkurt tomonidan yozilgan “Alihantora Saguni-Turkistan kaygusi. Giris-metin-notlar-dizinler” (Alixonto'ra Sog'uniy-

Turkiston qayg‘usi. Kirish, matn, eslatma) nomli ilmiy ishda “Turkiston qayg‘usi” asarining tarixiy jihatlarini tahlil qilib bergan.

Alixonto‘ra Sog‘uniyning boy va ko‘p qirrali ijodiy merosi nafaqat o‘zbek tilida, balki jahon adabiyotida ham muhim o‘rin tutmoqda. Masalan, “Turkiston qayg‘usi” asari Turkiyalik professor O‘g‘uz Do‘g‘an va Qutlug‘xon Shokirov bilan birgalikda turk tiliga tarjima qilinib, Istanbulda chop etildi. Taha Kilinchning “Gölgelerin peşinde 50 portre”(Soyalar ta‘qib qilgan 50 portret) nomli kitobida ham Alixonto‘ra Sog‘uniy haqida ma‘lumot keltirilgan. Fransuz tadqiqotchi olimi Stephan Dudoignon Alixonto‘ra Sog‘uniy asarlarini fransuz va ingliz tiliga tarjima qilgan. Dastlab bu olim Sog‘uniy haqida “UNESCO” jurnalida maqola e‘lon qilgan.

Mahalliy olimlarimizdan Yoqubjon Xo‘jamberdiyev “Sog‘uniy sog‘inchi” nomli hujjatli qissa (2014y.) yozgan, unda Alixonto‘ra Sog‘uniyning alloma, qo‘mondon, marshal, Turkiston xalqlari ozodligi uchun olib borilgan kurashda tutgan o‘rniga urg‘u berilgan. Shamil Almazbekovning “Benazir ustoz yoxud Alixonto‘ra Sog‘uniy tibbiy merosiga bir nazar”(2015y.) nomli kitobida esa “Shifo ul ilal” asarini tibbiy nuqtai nazardan tahlil qilib chiqqan.

Mazkur tadqiqot ishida esa Alixonto‘ra Sog‘uniyning pedagogik faoliyati va asarlarining pedagogik imkoniyatlari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash samaradorligini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Alixonto‘ra Sog‘uniy o‘zining ma‘naviy-axloqiy, tarbiyaviy qarashlari bilan pedagogika fani rivojiga ham hissa qo‘shganligi olib borgan izlanishlarimizdan ayon bo‘lmoqda. Zero, XX asr Sharqiy Turkiston tarixida chuqur iz qoldirgan alloma, adib, shoir va ulamo, tarixiy shaxs Alixonto‘ra Sog‘uniy o‘z hayotini Turkistonning ozodligi va mustaqilligiga bag‘ishlagan.


Alixonto‘ra Sog‘uniy yozib qoldirgan kitoblari “Tarixi Muhammadiy” (1959-yili yozib tugatilgan), “Turkiston qayg‘usi” (1966-1973 yillar orasida Toshkentda yozilgan), “Devoni Sog‘uniy” (she‘riy to‘plamga 50 dan ziyod she‘rlari kiritilgan), “Shifo ul-ilal” (Xastaliklar davosi) va boshqalardir.

Alixonto‘ra Sog‘uniy qomusiy bilim va sabrni talab qiluvchi tarjima faoliyati bilan ham shug‘ullangan. Amir Temur yozib qoldirgan “Temur tuzuklari” asarini forsiydan, Ahmad Donishning “Navodir-ul vaqoe”, Darveshali Changiyning “Musiqa risolasi”, Herman Yulius Vamberining qimmatli asari “Buxoro yohud Movarounnahr tarixi” ni usmonli turk tilidan o‘zbekchaga o‘girishi o‘zbek madaniyatini saqlab qolish, rivojlantirish yo‘lidagi xolis xizmatlarining debochasi bo‘lgan. Sharq jurnalida bosilib chiqqan “Ikki Turkiston g‘ururi” nomli maqolada Alixonto‘ra Sog‘uniyning “Temur tuzuklari” “Buxoro yohud Movarounnahr tarixi” asarlarini tarjima qilganlarining sababi ochiqdigan, asarlar kuchli manbalar asosida yozilganligi, ularni o‘qigan odamda vatanparvarlik tuyg‘usi uyg‘onishi, yanada kuchayishi bayon qilingan. Alixonto‘ra Sog‘uniy bu asarlarni yosh avlodlarda vatanparvarlik his-tuyg‘usini kuchaytirish maqsadida tarjima qilganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Alixonto‘ra Sog‘uniy chin ma‘noda ustoz, o‘qituvchi bo‘lgan. Ko‘pchilik insonlarni xat-savod chiqarishlariga va hatto ilmiy darajaga erishishlariga sababchi bo‘lgan. Shogirdlaridan biri akademik Oqjon Mashavov “faylasufi turkiy” hisoblangan Abu Nasr Forobiy shaxsi va ijodiy faoliyatini keng o‘rgangan olim hisoblanadi. U kishi Forobiyning asarlarini rus va qozoq tillariga tarjima qilishda ma‘lumotlarni, ko‘rsatmalarni Alixonto‘ra Sog‘uniydan olgan. Mashhur geolog akademik olim Habib Abdullayev, yana bir geolog olim, akademik G‘ani Mavlonov,

yetuk shifokor Shamil Almazbekovlar ham Sogʻuniyning shogirdlaridan boʻlgan. Alixontoʻra Sogʻuniy umrining soʻnggi kunlarigacha ustozlik faoliyatini toʻxtatmagan.

Alixontoʻra Sogʻuniyning oʻziga xos mutolaa uslubi va oʻqitish metodi boʻlgan. Birinchi galda bilim olishga jiddiy ragʻbat va harakat talab qilgan. Talabalar bilan muhokama va munozara oʻtkazish, mudarrislarga ularning maʼnaviy pokligi, bilimining chuqurligi va oʻqitishda xolisligiga qarab baho berish, bir saboqni toʻligʻicha tushunmay keyingisiga oʻtmaslik va shu kabi talablar mazkur uslubning qoidalaridan boʻlgan. Rivojlangan davlatlarning pedagogikaga oid adabiyotlari ham Alixontoʻra Sogʻuniyning oʻzi qoʻllagan, amaliyotga joriy etgan metodlari qanchalik toʻgʻri ekanligi allaqachon oʻz tasdigʻini topgan. Shuningdek, Alixontoʻra Sogʻuniy ilmiy merosida pedagogik mahorat mavjud boʻlib, bugungi kunda boʻlajak oʻqituvchilar oʻzlarining pedagogik faoliyatida Alixontoʻra Sogʻuniy metodlaridan foydalanishlari mumkin.



1-rasm. Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda Alixontoʻra Sogʻuniyning ilmiy-ijodiy merosidan foydalanishning didaktik imkoniyati.

Alixontoʻra Sogʻuniyning ilmiy-ijodiy merosi asosida boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning didaktik imkoniyatlari aks etgan tuzilmada (1-rasmga qarang) malaka talablaridan kelib chiqqan holda, talabalarda oʻz-oʻzini rivojlantirish, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish kabi koʻnikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari aks etgan boʻlib, ular quyidagilardan iborat:

4K(literacy and life skills) savodxonlik va hayotiy koʻnikmalarni rivojlantirish deb belgilangan, chunki uning ijodi va gʻoyalari zamonaviy taʼlim-tarbiya jarayoni uchun ham dolzarb boʻlgan bilim va qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim manba hisoblanadi;

Alixontoʻra Sogʻuniy ijodi orqali talabalarda hayotiy koʻnikmalarni rivojlantirish (*Life Skills*);

Kritik fikrlash (*Critical Thinking*): Asarlarini tahlil qilish: “Turkiston qayg‘usi” va boshqa asarlarini o‘qib, undagi murakkab mavzular va voqealar zanjirini tahlil qilish orqali o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni oshirish va vatanparvarlik, insoniylik, adolat, ma’naviyat kabi masalalar yuzasidan bahs-munozaralar tashkil etish;

Kommunikatsiya (*Communication*): Alixonto‘ra Sog‘uniy she‘rlari, asarlari orqali notiqlik va ta’sirli nutq qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Uning asarlaridagi axloqiy qadriyatlar, do‘stlik va insoniy munosabatlar haqidagi fikrlarini muloqotda qo‘llash;

Kreativlik (*Creativity*): Alixonto‘ra Sog‘uniy asarlaridagi vatanparvarlik, madaniyat va urf-odatlar haqida yozilgan hikoyalar talabalarni ijodiy yondashuvga undaydi. Ular asosida sahna ko‘rinishlari tashkil etish hamda asar qahramonlarining muqobil hikoyalarni yozdirish;

Hamkorlik (*Collaboration*): Guruhli loyiha ishlarini olib borish, Alixonto‘ra Sog‘uniy asarlari asosida spektakl sahnalashtirish hamda uning insonparvarlik, vatanparvarlik g‘oyalari orqali munozara va debatlar tashkil etish;

Alixonto‘ra Sog‘uniy merosi orqali savodxonlik ko‘nikmalarini (*literacy skills*)ni rivojlantirish:

Matn savodxonligi (*Text Literacy*): Alixonto‘ra Sog‘uniy asarlaridan foydalanib, o‘quvchilarga murakkab matnlarni tushunish va talqin qilishni o‘rgatish. Uning badiiy asarlaridagi tildan foydalanish, mazmun va g‘oyalarni chuqur o‘rganish orqali matnni tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish;

Axborot savodxonligi (*Information Literacy*): Tarixiy ma’lumotlarni qidirish, Alixonto‘ra Sog‘uniy davriga oid tarixiy va madaniy ma’lumotlarni tadqiq qilish. Uning asarlarini boshqa jadid ma’rifatparvarlar asarlari bilan taqqoslab, o‘xshashlik va farqlarni aniqlash;

Alixonto‘ra Sog‘uniyning insoniylik va ma’rifat g‘oyalarini zamonaviy ommaviy axborot vositalaridagi voqealar bilan bog‘lab tahlil qilish;

Axboriy savodxonlik: Alixonto‘ra Sog‘uniy hayoti va asarlariga oid zamonaviy vositalar yordamida o‘yinlar va testlar yaratish;

Texnik savodxonlik: Alixonto‘ra Sog‘uniy asarlari bo‘yicha zamonaviy raqamli platformalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish;


Media savodxonlik (*Media Literacy*): Sog‘uniyga bag‘ishlangan videolar, podkastlar yoki infografikalar yaratish orqali raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Ma’lumki, bakalavriat bosqichida “Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi”, “Valeologiya asoslari” fanlari o‘rganiladi. Alixonto‘ra Sog‘uniy asarlari orqali bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashdagi yana bir e’tiborli jihati shundaki, adibning “Shifo-ul ilal”, ya’ni xastaliklar shifosi asari o‘zida bevosita valeologiyaga oid amaliy bilimlarni mujassamlagan.

Tadqiqot davomida Alixonto‘ra Sog‘uniy yozib qoldirgan asarlar tahlilini o‘rganar ekanmiz, muallif xususiy ta’limni qo‘llab-quvvatlagani, dunyoqarashni kengaytirish va dunyo bilan hamnafas bo‘lish uchun jahon adabiyotini o‘qish kerakligini, dunyo yangiliklaridan boxabar bo‘lib borish lozim ekanligini, o‘z ustida tinimsiz ishlash, mustaqil ta’limga alohida urg‘u berganligini ko‘rishimiz mumkin. Bo‘lajak o‘qituvchilar ham o‘z kasbining ustasi bo‘lishi uchun Alixonto‘ra Sog‘uniyning yuqoridagi tavsiyalariga amal qilsalar foydadan holi bo‘lmaydi.

Alixonto‘ra Sog‘uniy yozib qoldirgan asarlarining tarixiy ahamiyati shundaki, o‘sib kelayotgan avlodlarni tarbiyalashda muhim manbaa hisoblanadi. Shuningdek, olimning ta’lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o‘zbek xalqining ruhiyati, turmush

tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bogʻlanganligi, adibning boy pedagogik merosi milliy pedagogikamizni rivojlantirishda qimmatbaho manbaa boʻlib xizmat qiladi. Alixontoʻra Sogʻuniyning asarlari tarixiy-pedagogik, taʼlimiy va qomusiy yodgorlik hisoblanadi. Olimning asarlarida ifoda etilgan gʻoyalar, falsafiy pedagogik hikmatlar oʻzining hayotiy mazmuni bilan bugungi kunda ham oʻz dolzarbligini yoʻqotmaganligini ilgʻash mumkin. Darhaqiqat, asarlarining tub maʼno–mohiyati oʻzbek madaniyatni asrash, rivojlantirish, xalqimiz maʼnaviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. Uning asarlarida shaxsga yoʻnaltirilgan insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik gʻoyalari va axloq-odob tamoyilida hozirgi zamon uchun ham behad ibratli boʻlgan saboqlar borligini alohida taʼkidlab oʻtmoq joizdir.



2-rasm. Boʻljak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda Alixontoʻra Sogʻuniyning ilmiy-ijodiy merosidan foydalanish tuzilmasi.

Dissertatsiyaning “Alixontoʻra Sogʻuniy ilmiy-ijodiy merosini oʻrganishda pedagogik faoliyatni takomillashtirish” nomli ikkinchi bobida ajdodlarimiz merosini oʻrganish, xususan Alixontoʻra Sogʻuniyning ilmiy-ijodiy merosini oʻrganish va tadbiiq qilishning yangi yondashuvlari va usullarini izlashni kuchaytirish, shaxsning pozitsiyasi, ayniqsa, umuminsoniy qadriyatlar kontekstida odob-axloq qoidalari, zamonaviy jamiyatda yosh avlodga maqbul keladigan raqamli texnologiyalar asosida oʻqitish metodikasi va uni takomillashtirish modeli keltirilgan. Boʻljak oʻqituvchilar oʻzlarining pedagogik faoliyatlarida foydalanishlari uchun sinfdan tashqari mashgʻulotlarda Alixontoʻra Sogʻuniy merosini oʻrgatish metodikasi ham keltirib oʻtilgan.

“Boshlangʻich taʼlimda tarbiya fani”ning vazifasi boʻljak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida tarbiya nazariyasi, didaktikasi, metodologiyasi va texnologiyasi boʻyicha kasbiy kompetensiyani tarkib toptirishdir. Talabalarni boshlangʻich sinflarda tarbiya jarayonini amalga oshirish va tarbiyaviy ishlar faoliyati bilan shugʻullanishga tayyorlaydi. Boshlangʻich taʼlim (60110500) bakalavriat taʼlim yoʻnalishining malaka talablaridagi 2.1-bandida talabalarining ilmiy tadqiqotlarini tashkil etish, ona tilida oʻz fikrlarini tizimli bayon qilish, 2.2 – bandida tanqidiy

fikrlash metodikasini o'zlashtirganlik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak shaxsiy fazilatlarini kamol toptirish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerakligi belgilangan. Mazkur malaka talablariga muvofiq, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda Alixonto'ra Sog'unining ilmiy-ijodiy merosidan foydalanish jarayonining 1-bosqichida talabalardan anketa-so'rovnomani olinib, ularning bilim va ko'nikmalari o'rganildi. Dars mashg'ulotlari va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda Alixonto'ra Sog'uniy va uning merosiga oid podkastlar, mobil ilova, veb-kvestlar "Xorazmiy" ta'lim metodi orqali talabalarga yetkazildi. Quyidagicha gipotezalar hosil qilindi: talabalarda tadqiqot, 4 K ko'nikmalari, odob ilmi, elparvarlik hissiyotlarini optimallashtirish orqali berilgan. Natijada, Alixonto'ra Sog'unining ilmiy-ijodiy merosini o'rganish orqali bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik ko'nikmalari, kollobaratsiya, kommunikativlik, kreativ va kritik fikrlash, odob ilmi, ta'lim orqali harakatchanlikni oshirish, elparvarlik hissiyotlarini optimallashtirish hamda amaliyot bilan bog'liqlik, tarbiya va rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillaridan adekvat foydalanish asosida takomillashtirildi.

Alixonto'ra Sog'uniy yuksak bilimga ega olim, ma'rifatchi, pedagogdir. Butun umrini ilm-ma'rifatga bag'ishlagan, milliylik hissinini oshirishga bel bog'lagan olimni hayoti va ijodini, asarlaridagi pedagogik bayonotlarni metodik jihatdan o'rganmasdan qoldirish to'g'ri emas.

Alixonto'ra Sog'unining hayoti va ma'naviy merosi yoshlarda umuminsoniy fazilatlarini tarbiya toptirishda qo'l keladi. Alixonto'ra Sog'uniy o'zining ta'lim-tarbiyaga oid fikr-mulohazalari bilan komil inson tarbiyasiga katta hissa qo'shgan insonparvarlik to'g'risidagi fikrlari hozirgi davrimiz uchun ham g'oyat muhimdir. Har bir o'qituvchi - pedagog faoliyat yuritar ekan, berayotgan ta'lim-tarbiyasining yanada samarali bo'lishi uchun o'z ustida ishlashi, bilimini, mahoratini o'stirishi zarur. Alixonto'ra Sog'uniy o'zining "Turkiston qayg'usi" asarida "...o'tmishdagi ishlarimizga o'kinib o'ltirish o'rnida undan ibratlanish, kelajagimiz uchun hozirlik ko'rishimiz kerakdir" deb ta'kidlaydi. Chunki ikki Turkiston bolalari ikki ajdarho og'ziga to'g'ri kelib, yutilish oldida turadilar. Bundan qutulishning birdan-bir chorasi zamonaviy ilm-fan bilan to'liq qurollanib, buning ustiga milliy hislaridan ajramay, o'z ona tillarini jon o'rnida asrashlari lozimligi xususida yozib qoldirgan. Alixonto'ra Sog'unining ushbu qarashlari nafaqat tarixiy, balki zamonaviy kontekstda ham dolzarbdir. U milliy meros va madaniyatiga ehtiyotkorlik bilan yondashishga undaydi, zamonaviy ilm-fan esa buni amalga oshirishda muhim vosita sifatida ko'rsatadi. O'quvchi yoshlarga chuqur bilim berishda ustozlar, avvalo, madaniyatli, bilim va tarbiyada namuna bo'lishi zarurligini uqtiradi. Ayniqsa, o'qituvchi o'qitish yo'llarini biladigan bo'lishini ta'kidlab, nodon, johil muallimlarni tanqid ostiga oladi. Zero, Sog'uniy nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham pedagogik faoliyatga aloqador bo'lgan.

Alixonto'ra Sog'uniy ilmiy-meroslarida bo'lajak o'qituvchilar o'z ona tiliga qattiq e'tibor berishi, har on nutq madaniyatiga rioya etishi, o'zlarining psixologik, estetik, jismoniy, axloqiy jihatlariga alohida ahamiyat qaratishi muhim ekanligi, kasbiy pedagogik faoliyatida o'z o'quvchilarini madaniyat egalari etib tarbiyalashga oid fikrlar keltirilgan. Alixonto'ra Sog'uniy madaniyat tushunchasi haqida shunday fikr bildiradi: "Asl, tuzuk madaniyatni ziyondosh, buzuq madaniyatdan ajrata olish joizligi, agar madaniyat deb ko'rinishda obodon, haqiqatda xarob, odob-axloqsizlar madaniyatini aytadigan bo'lsak, ulug' xato qilgan bo'lamiz. Chunki dunyodagi borliq

narsalar inson turmushiga yordam yetkazish uchun yaratilmishdir. Buzuq madaniyatda esa, aksincha, insonlar ul narsalar uchun qurbon qilinadi.” Shiningdek, olimning fikricha, madaniyat taraqqiyotining ilgari-keyin chiqarayotgan butun yangiliklari inson hayotini yaxshilash uchun xizmat qilishi lozim.


Tadqiqot ishimiz davomida Alixonto‘ra Sog‘uniy ilmiy-ijodiy merosini o‘rganishda pedagogik faoliyatni takomillashtirish modeli ishlab chiqilgan bo‘lib, u maqsadli, mazmunli va natijaviylik komponentlari asosida yoritilgan. Modelning maqsadli komponenti oliy ta‘lim muassasasida ma‘rifatparvar ajdodlarimiz xususan Alixonto‘ra Sog‘uniyning ilmiy-ijodiy merosi asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirishga yo‘naltirilgan quydagi vazifalarni o‘z ichiga oladi (3-rasmga qarang):

Boshlang‘ich ta‘lim bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining malaka talablaridan (1.2.4 ta‘lim jarayonida AKTdan unumli foydalanish, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy o‘qish, ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatida vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak) kelib chiqqan holda pedagogik faoliyat uchun ahamiyatli bo‘lgan tayyorgarligini takomillashtirish;

Modelning bosqichlari o‘zaro izchil bog‘langan bo‘lib, har bir bosqich talabaning shaxsiy, jamoaviy va ilmiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan.

I bosqich “Ma‘naviy-axloqiy asoslarni shakllantirish” bo‘lib, bu bosqichda asosiy e‘tibor Alixonto‘ra Sog‘uniy asarlaridagi axloqiy qadriyatlarni (adolat, halollik, insonparvarlik) o‘quvchilar ongiga singdirishga qaratilgan. Axloqiy tarbiya zamonaviy jamiyatda muhim ahamiyatga ega, chunki bu yoshlarning ijtimoiy javobgarligi va axloqiy xulq-atvori shakllanishiga xizmat qiladi.

Amaliy yondashuv: Alixonto‘ra Sog‘uniy asarlaridan iqtiboslar asosida bahs-munozaralar tashkil etish. Bu talabalarni o‘z fikrlarini bayon qilishga va qadriyatlarni shaxsiy hayotda qo‘llashga o‘rgatadi. 3D animatsiyalar va virtual darslar orqali Sog‘uniy g‘oyalarini vizual va hissiy tarzda yoritish. Bu talabalarning diqqatini jalb etadi va mavzuni osonroq tushunishga yordam beradi.



3-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirish modeli.

Amaliy natijalar: Talabalar o'zlarining ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini boyitib, shaxsiy rivojlanishga erishadilar.

